



## 1-martdan nimalar o'zgaradi?

2-betda o'qing



## Yillik mehnat ta'tili qachon beriladi?

4-betda o'qing

# INSON va qonun

2024-YIL  
27-FEVRAL  
SESHANBA

№ 08  
(1420)

www.hudud24.uz

@adolat\_nashrlari



"ADOLAT" milliy huquqiy axborot markazi nashrlariga obuna bo'ling!



"Adolat nashrlari" telegram kanalida kuzating!



www.adolatmarkazi.uz

telegram.me/hudud24official/

facebook.com/hudud24official/

XABAR



## Ayol ilimli bo'lsa, MILLAT ILMMLI BO'LADI

*Yangi O'zbekiston sharoitida xotin-qizlarni ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar faoliyatiga keng jalb qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shunday ekan, yurtimiz ayollari va qizlarining ilm-fandagi faolligini xalqaro miqyosda kuchaytirish, ta'lim va ilm-fan sohalarida gender tenglikka erishish nihoyatda zarur. Chunki ayol bilimli bo'lsa, tarbiya qilgan farzandlari zukko, salohiyatli bo'ladi. Oddiy qilib aytganda, ayol ilimli bo'lsa, millat ilimli bo'ladi.*



5-betda o'qing

Mamlakatimiz aholisining qariyb yarmi xotin-qizlardan iborat. Shu ma'noda, qizlarning sifatli ta'lim olishi, kasb egallab, jamiyatda o'z o'rnini topishi yaratilayotgan katta imkoniyatlar natijasi ekani shubhasiz.

Olimlarimizning, ayniqsa, kimyo, biotexnologiya, qishloq xo'jaligi kabi sohalaridagi intellektual mehnati samarasi nafaqat yurtimizda, balki xorijda ham yuksak baholanmoqda. O'zbekiston Fanlar akademiyasi huzuridagi ilmiy institutlarda qariyb 3 ming nafar xotin-qiz tadqiqot bilan mashg'ul. Bu raqamlar yurtimizda yashaydigan xotin-qizlarning jami soniga nisbatan necha foizni tashkil etishini qiyosan hisoblab ko'rganda, albatta, hosil bo'ladigan salmoqdan hozircha ko'ngil to'lmaydi.

UNESCOning ilm-fan to'g'risidagi yangi ma'ruzasida qayd etilishicha, hozirgi vaqtda dunyo miqyosida texnika fakultetlari bitiruvchilarining taxminan 30-35 foizi, kompyuter va informatika fanlari bo'yicha fakultetlar bitiruvchilarining 45 foizi xotin-qizlar, xolos. Ya'ni, ayollar ilm-fanda va texnologiyalar sohasida haligacha yetarli darajadagi mavqeni egal-lamagan. UNESCO ekspertlarining fikricha, xotin-qizlar raqamli iqtisodiyotning uzviy bir qismiga aylanishlari darkor. Toki, to'rtinchi industrial inqilobda gender tengsizlik kabi nomaqbul an'anaga o'rin qolmasin.

Prezidentimizning 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, davlat ilmiy tashkilotlari yoki oliy ta'lim muassasalari doktoranturasiga xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratilayotgani ushbu yo'nalishdagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Ma'naviyat – insonning axloqi va odobi, bilimlari, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarning bir-biri bilan uzviy bog'langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan mushtarak tizimidir. Insonning jamiyatdagi o'rnini uning moddiy boyliklari bilan emas, balki yuksak ma'naviy qiyofasi bilan belgilanadi.

## MA'NAVIYAT – ENG MUHIM VA HAMMA SHUG'ULLANISHI KERAK BO'LGAN MASALA



2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi 7 ta asosiy yo'nalishning beshinchisi "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" masalasidir. U 8 ta maqsaddan iborat bo'lib, ma'naviy ta'lim-tarbiya masalasi alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi. Bu borada mamlakatimizda keng miqyosdagi islohotlar olib borilmoqda.

Kelajakda huquqiy demokratik davlat barpo etish va xalqimiz uchun munosib turmush tarzini yaratish oliy maqsadimizdir. Bu maqsadlarga erishishimiz xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga, ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga bevosita bog'liq. Jamiyatimizni isloh qilish, milliy qadriyatlarimiz va haqiqiy tariximizni tiklash, milliy g'oyamizga ega bo'lish jarayonida yoshlarni ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash dolzarb masaladir. Bu jarayon tarbiyaviy ishlar majmuidagi asosiy o'rinni egallaydi. Shu boisdan ham, keyingi yillarda yoshlarning ma'naviy-mafkuraviy tafakkurini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

5-betda o'qing

## 2 QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR

1-MARTDAN  
NIMALAR O'ZGARADI?

Qonunchilikka ko'ra, ekologik toza hudud rejimi joriy qilingan hududlardagi fuqarolar yig'inlariga "ekomahalla", "ekoqishloq" va "ekoovul" maqomi beriladi.

**CHET ELDAN TURIB NOTARIAL BITIMLARNI RASMIYLASHTIRISH MUMKIN**

Notarial idoraga kelmasdan, shu jumladan chet eldan turib mol-mulkdan foydalanish bilan bog'liq bitimlarni (mulk huquqini boshqa shaxsga o'tkazishdan tashqari) elektron raqamli imzodan foydalanib, videokonferensaloqa orqali rasmiylashtirish tartibi yo'lga qo'yiladi.

**MOSLASHUVCHAN ISH TARTIBI JORIY ETILADI**

Individual ijtimoiy xizmatlar rejasiga muvofiq o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, mustaqil ravishda harakatlanish va mo'ljal olish imkoniyati cheklangan yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy xodimlar assistentlarining "soatbay" asosida haftaning barcha kunlari xizmat ko'rsatishi uchun qonunchilikka muvofiq moslashuvchan ish tartibi joriy etiladi.

**22 TURDAGI LITSENZIYALANADIGAN FAOLIYAT VA RUXSAT ETISH XUSUSIYATIGA EGA HUJJATLAR BEKOR QILINADI**

Qonunchilikka ko'ra, litsenziyalanadigan faoliyat va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarning 22 turi bekor qilinadi:

- litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari sohasidagi huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun yuridik shaxslarga qo'llanilgan jarama summasi miqdorining 50 foizi 15 kun ichida, 70 foizi 30 kun ichida ixtiyoriy ravishda to'langanda, huquqbuzar jarimaning qolgan qismini to'lashdan ozod etiladi;
- litsenziya yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni berish jarayonida video aloqa vositalari yordamida talabgorlarning litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar talab va shartlariga muvofiqligini masofadan turib baholash tartibi joriy etiladi;
- tadbirkorlik subyektni davlat ro'yxatidan o'tkazish yoki qayta ro'yxatdan o'tkazishda uning pochta manzili sifatida muassisning turar joyini ko'rsatishga ruxsat beriladi.

**"BIZNESGA LITSENZIYASIZ KIRISH"**

2025-yil 1-yanvargacha huquqiy eksperiment tariqasida rentgen uskunasidan foydalanish va veterinariya laboratoriya-dagnostika ishlarini amalga oshirish faoliyatlarini boshlash uchun uch oygacha o'tish va moslashish davrini belgilaydigan "Biznesga litsenziyasiz kirish" maxsus rejimi joriy etiladi.

**QUYOSH PANELLARINI CHETDAN OLIB KIRISH TAQIQLANADI**

Qonunchilikka ko'ra, texnik hujjatlarida yoki markirovkasida quyosh elementlarining sifat ko'rsatkichlarini ifodalovchi "A", "V", "S" va "D" tegishli sinfi to'g'risidagi axborotlar mavjud bo'lmagan quyosh panellarini chetdan olib kirish taqiqlanadi.

**Ma'ruf LUKCHAYEV,**

"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi mas'ul xodimi

**Oilaviy biznes mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'rin tutishi hech birimizga sir emas. Chunki u xalqimiz urf-odatlarini, mentaliteti va o'zbek oilasining bir qator o'ziga xos xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq.**

O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 26-apreldagi "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi qonunining 1-moddasiga ko'ra, oilaviy tadbirkorlik oila a'zolari tomonidan tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyati bo'lib, o'z ishtirokchilarining ixtiyoriylikiga asoslanadi. Oilaviy tadbirkorlik yuridik shaxs tashkil etgan yoki tashkil etmagan holda amalga oshiriladi. Yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazib faoliyat yuritadigan oilaviy biznesning tashkiliy-huquqiy shakli oilaviy korxonaga hisoblanadi. Yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi oilaviy tadbirkorlik shakli qonun hujjatlarida belgilangan.

**OILAVIY TADBIRKORLIK IQTISODIY TARAQQIYOTDA MUHIM O'RIN TUTADI**

Oilaviy korxonaga tovar ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) va realizatsiya qilish maqsadida ishtirok etishga xohish-istak bildirgan shaxslarning umumiy ulushli yoki birgalikdagi mol-mulkari negizida ixtiyoriy tashkil etiladigan kichik biznes tuzilma yoki kichik tadbirkorlik subyektidir.



**Qonunga muvofiq, oilaviy korxonaga ishtirokchilarining soni kamida ikki kishidan oz bo'lmasligi kerak. Korxonaga tarkibini oila boshlig'i, uning xotini (eri), bolalari, nabiralari, ota-onasi, tug'ishgan hamda o'g'ay aka-uka va opa-singillari, mehnatga layoqatli boshqa qarindoshlari tashkil etadi.**

Oilaviy korxonaga qonunda taqiqlanmagan turli faoliyat yo'nalishlari bilan shug'ullanishga huquqli bo'lsa-da, ayrim turdagilari bilan faqat maxsus ruxsatnoma (litsenziya) mavjud bo'lgandagina, amalga oshirishga yo'l qo'yiladi. Masalan, oilaviy korxonaga aksiz solig'i to'lanadigan mahsulotni ishlab chiqarishni, yer qaridan foydalanilganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib olishni, yuridik shaxslar

uchun qat'iy belgilangan soliq yoki yagona yer solig'i to'lash nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirishga ruxsat etilmaydi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 13-sentabr-dagi "Oilaviy korxonaga tomonidan foydalanishga yo'l qo'yilmaydigan moddalar, materiallar va asbob-uskunalar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan ro'yxatga asosan oilaviy korxonaga o'z faoliyatida zaharli radioaktiv moddalar va materiallardan, yuqori bosimli asbob-uskunalar hamda inson va atrof-muhit uchun katta xavf tug'diradigan boshqa asbob-uskunalaridan foydalanish taqiqlanadi.



Bundan tashqari, oilaviy korxonaga tomonidan ko'p kvartirali uyning turar joylarida sanoat tusidagi faoliyatni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Yuqoridagi qonunning 22-moddasida oilaviy korxonaga ishtirokchilari va yollanma xodimlarining huquq va majburiyatlari nazarda tutilgan. Unga ko'ra, korxonaga o'z ishtirokchilari va yollanma xodimlariga xavfsiz mehnat sharoitlarini, ijtimoiy muhofaza choralarini ta'minlashi hamda ularning hayoti yoki sog'lig'ini sug'urtalashi shart, yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi. O'z navbatida, korxonaga ishtirokchilar va yollanma xodimlar uchun qonun hujjatlarida belgilangan nisbatan imtiyozliroq mehnat hamda ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni mustaqil ravishda belgilashga haqli. Ishtirokchilar va yollanma xodimlarning ishlagan vaqti davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha badallar to'langani tasdiqlovchi hujjatlar va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuritiladigan mehnat daftarchasidagi yozuvlar asosida mehnat stajiga qo'shiladi.

Qonunda davlat oilaviy korxonaning huquqlariga rioya etilishi va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini kafolatlashi belgilangan. Bu davlat organlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda foydalanilmayotgan yashash uchun mo'ljallanmagan joylarni oilaviy korxonaga ijaraga berilishini, ishlab chiqarish maydonlarini qurish uchun oilaviy korxonaga yer ajratilishini, oilaviy korxonaga ishlab chiqarish obyektlarining muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishini, oilaviy korxonaga tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilish uchun maxsus joylar berilishini ta'minlashda namoyon bo'ladi.

Oilaviy korxonaning texnologiyalarni, ishlab chiqariladigan mahsulotning assortimentini tanlashida, mahsulot narxini hamda uni realizatsiya qilish yo'nalishlarini belgilashda davlat organlari va ular mansabdor shaxslarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

Oilaviy korxonaga faoliyati uchun kommunal xizmat ko'rsatish borasida ham imtiyozlar berildi. Jumladan, oilaviy korxonaga turar joydan unda istiqomat qilgan holda tovar ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) uchun foydalanilgan taqdirda, kommunal infratuzilma xizmatlari (elektr energiyasi, suv ta'minoti va issiqlik ta'minoti) haqini aholi uchun belgilangan tariflar bo'yicha va shartlar asosida to'laydi.

**Rustam RO'ZIYEV,**

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori

Rishton tumanining “Guliston mahallasida yashovchi fuqaro S. Akbarov tuman adliya bo‘limiga murojaat qilib, Budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasining Rishton tuman bo‘limi tomonidan 8 yillik ish staji pensiya hisoblashda inobatga olinmayotganidan noroziligini bildirgan.

## SOBIQ SUDYANING MUROJAATI QANOATLANTIRILDI



Aniqlanishicha, S. Akbarov 2023-yil aprel oyida Budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi Rishton tuman bo‘limiga nogironlik pensiyasi tayinlashni so‘rab murojaat qilgan. Bo‘limning 2023-yil 2-maydagi qarori bilan ariza muallifining mehnat staji va ish haqi qo‘shib hisoblanib, nogironlik pensiyasi tayinlangan. Ammo mazkur qarorning ik-

kinchi qismiga muvofiq, S. Akbarovning 2005-yil 1-yanvardan 2005-yil 31-dekabr qadar Oltinsoy tuman xususiy maslahatxonasida advokat, 2005-yil 31-dekabr 2010-yil 15-noyabrgacha fuqarolik ishlari bo‘yicha Rishton tumanlararo sudning sudyasi, 2014-yil 15-martdan 2016-yil 28-martga qadar “Abdurazzoqov Farruh” fermer xo‘jaligi a‘zosi vazifasida ishlagan davrlarini umumiy ish stajiga qo‘shib hisoblash rad etilgan.

O‘rganish natijasiga ko‘ra, fuqaro S. Akbarov manfaatida Farg‘ona tumanlararo ma‘muriy sudiga ariza kiritildi.

Mehnat kodeksining 125-moddasi va O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 3-sentabrdagi “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi qonunining 42-moddasiga muvofiq, mehnat daftarchasi ish stajini tasdiqlovchi asosiy hujjat hisoblanadi. Mazkur qoida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-oktabrdagi qarori bilan tasdiqlangan “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi Nizom”, Oliy sud plenumining 2017-yil 29-noyabrda qabul qilingan “Davlat pensiya ta‘minoti bilan bog‘liq ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorida ham o‘z aksini topgan. Sud tomonidan pensiya jamg‘armasi Rishton tuman bo‘limi zimmasiga yuqoridagi 8 yillik davrni S. Akbarovga pensiya tayinlashda inobatga olish majburiyatini yuklash to‘g‘risida hal qiluv qarori qabul qilindi.

**Ikromjon ISAQOV,**

Rishton tuman adliya bo‘limi boshlig‘i

Adliya vazirligi tomonidan 2024-yilning 20-yanvardan 20-martigacha o‘tkazilayotgan “Hech bir shaxs hujjatsiz qolmaydi” huquqiy aksiya doirasida mahallalarda o‘rganishlar davom etmoqda.

## BESH YILGA KECHIKKAN GUVOHNOMA RASMIYLASHTIRILDI

Huquqiy aksiyada tug‘ilishi qayd etilmagan va fuqarolik pasporti yoki ID-kartasi mavjud bo‘lmagan shaxslarga tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma va shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni rasmiylashtirish, huquqiy muammosi mavjud yoki huquqiy yordamga muhtoj aholiga amaliy yordam ko‘rsatish, ro‘yxatdan o‘tkazilmagan tadbirkorlik subyektlarini yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmagan ko‘chmas mulklarini ro‘yxatdan o‘tkazishga ko‘maklashish va boshqa xizmatlarni ko‘rsatish nazarda tutilgan.

O‘rganishlar natijasida Oltinsoy tumanidagi “Qoratepa” mahallasida yashovchi fuqaro S.M.ning 2019-yilda Samarqand shahrida tug‘ilgan nevarasining tug‘ilganlik haqida guvohnomasi yo‘qligi aniqlandi. Oltinsoy tuman adliya bo‘limi va tuman FHDY bo‘limi xodimlari tomonidan tug‘ilganlik haqida dalolatnoma yozuvini qayd etish uchun kerak bo‘lgan barcha zaruriy hujjatlar yig‘ilib, joriy yilning 19-fevral sanasida S.M.ning nevarasi X.Sh.M.ga 5 yilga kechikkan tug‘ilganlik haqida guvohnoma rasmiylashtirib berildi.

**Bibisora HUSANOVA,**

Oltinsoy tuman adliya bo‘limi FHDY bo‘limi 1-toifali inspektori



Qonunchilikda ayollarga umumiy pensiya yoshi 55 yosh etib belgilangan. Ammo ayollar uchun 1 yilga qisqartirilgan holda, ya‘ni 54 yoshdan pensiyaga chiqish imtiyoz mavjud. Xo‘sh, bu imtiyozdan ayollar qachon foydalana oladi?

## AYOLLAR IMTIYOZIDAN QACHON FOYDALANA OLADI?

Bu imtiyozdan foydalanish uchun ayollarda to‘liq 20 yil ish staji bo‘lishi talab etiladi. Bunda ayollar “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi qonunning 37-moddasida belgilangan, quyidagi 4 ta band asosidagi faoliyati davomiyligi 20 yilni tashkil etgandagina 54 yoshdan yoshga doir pensiyaga chiqish huquqiga ega bo‘ladi:

- ☑ mulk va xo‘jalik yuritish shakllaridan qat‘i nazar, xodim davlat tomonidan ijtimoiy sug‘urtalangan holda bajargan har qanday ish;
- ☑ harbiy xizmat va partizan otryadlari hamda qo‘shilmalarida bo‘lish, davlat xavfsizligi organlarida, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida va ichki ishlar organlarida xizmat qilish;
- ☑ idoraviy bo‘ysunuvidan qat‘i nazar, harbiylashtirilgan qo‘riqlashdagi, maxsus aloqa organlari va tog‘-kon-qutqaruv qismlaridagi xizmat;
- ☑ yakka tartibdagi mehnat va oilaviy tadbirkorlik faoliyati, shu jumladan shaxsiy yordamchi xo‘jalikdagi va yuridik shaxs tashkil etilmagan holdagi dehqon xo‘jaligidagi faoliyat bilan shug‘ullangan taqdirda imtiyozli pensiyaga chiqishi mumkin.

Mazkur bandlar talabiga javob bergan holda ish staji to‘liq 20 yilni tashkil etsagina, mavjud imtiyozdan foydalana oladi. Misol uchun, fuqaro 25 yil ish staji bilan 54 yoshdan yoshga doir pensiya tayinlashni so‘rab Pensiya jamg‘armasiga murojaat qildi deylik, ammo fuqaro 3 nafar farzandi uchun ko‘rsatib o‘tilgan davr mobaynida 6 yil bola parvarishlash ta‘tili (dekret) davrida bo‘lgani uchun, fuqaroning haqiqiy ish staji 19 yilni tashkil etgani bois u 54 yoshdan yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo‘la olmaydi.

**Maftuna G‘AFFOROVA,**

Sariosiyo tuman adliya bo‘limi yuridik xizmat ko‘rsatish markazi bosh yuriskonsulti

SO‘RAGAN EDINGIZ

## MEROS ISHI QACHON, QAYERDA OCHILADI?

– Otam vafot etdi, uyda kenja farzandman, qarindoshlar “meros ishi” ochish kerak deyishdi. U qayerda ochiladi?

**I. RAHMONOV,**  
Karmana tumani

– Meros fuqaroning o‘limi yoki uning sud tomonidan vafot etgan deb e‘lon qilinishi oqibatida ochiladi.

Meros ochilgan vaqt – meros qoldiruvchining o‘lgan kuni (zarurat bo‘lganda payti ham), u vafot etgan deb e‘lon qilinganda esa, agar sudning qarorida boshqa muddat ko‘rsatilgan bo‘lmasa, vafot etgan deb e‘lon qilish to‘g‘risidagi sudning qarori kuchga kirgan kun. Agar biridan keyin boshqasi meros olishga haqli bo‘lgan shaxslar bir kalendar sutka (yigirma to‘rt soat) ichida vafot etgan bo‘lsa, ular bir vaqtda vafot etgan deb hisoblanadilar, meros ularning har biridan keyin ochiladi va ulardan har birining merosxo‘rlari vorislikka chaqiriladilar.

– Shartli vasiyatnoma nima?

**B. QODIROV,**  
Zarafshon shahri

– Fuqarolik kodeksining 1121-moddasiga asosan vasiyat qiluvchi merosning olinishi uchun merosxo‘r xulq-atvorining xususiyatini qonuniy ravishda shart qilib qo‘yishga haqli. Merosxo‘rni tayinlash yoki vorislik huquqidan mahrum etish to‘g‘risidagi farmoyishga kiritilgan g‘ayriqonuniy shartlar haqiqiy bo‘lmaydi. Vasiyatnomaga kiritilgan bo‘lib, merosxo‘r o‘z salomatligining ahvoriga ko‘ra yoki boshqa obyektiv sabablar tufayli bajara olmaydigan shartlar merosxo‘rning da‘vosi bo‘yicha haqiqiy emas, deb topilishi mumkin.

**Savollarga Navoiy shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Farrux RO‘ZIYEV javob berdi**

Inson hayotida turfa sinov va turli vaziyatlarga duch keladi. Biroq har qanday holatda ham hujjat ishi bilan bog‘liq masalada muammo bo‘lmasligi kerak. Zotan, kimningdir nazdida oddiy holat sifatida qaralib, o‘z vaqtida rasmiylashtirilmagan birgina hujjat zanjir kabi boshqa hujjatlarning ham rasmiylashtirilmay qolishiga sabab bo‘lishi mumkin.

## “BU MENING BIRINCHI HUJJATIM”



Sayxunobod tumani “O‘zbekiston” mahallasida yashovchi fuqaro Matluba O‘rolovning qizi Mashhura O‘rolova 2016-yil 29-noyabrda tug‘ilgan, biroq ba‘zi bir sabablarga ko‘ra hozirgi kunga qadar unga tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma olinmagan.

Aksiya doirasida FHDY bo‘limi tomonidan M. O‘rolovning murojaati qonuniy tartibda o‘rganilib, farzandi Mashhura O‘rolovga joriy yilning 24-yanvar kuni muddati o‘tgan tug‘ilish qayd etildi hamda tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma rasmiylashtirib berildi.

– Bu mening birinchi hujjatim, – deya faxrlandi qizaloq.

**Sirdaryo viloyat adliya boshqarmasi Axborot xizmati**

## 4 “MADAD” – MASLAHATCHI



Savollarga “Madad” NNT Samarqand shahar huquqiy maslahat byurosi bosh mutaxassisi

**Malika TOLLIBAYEVA**  
javob berdi



### TUG'ILMAGAN FARZANDGA HAM ALIMENT OLSA BO'LADIMI?

– Bir necha hal qiluv qarori bilan aliment to'lovlari qanday undiriladi? Tug'ilmagan farzand uchun ham aliment olsa bo'ladimi?

**Rashida MAMATOVA,**  
Bulung'ur tumani

– Oila kodeksining 115-moddasiga ko'ra, boshqa-boshqa ota-onadan tug'ilgan voyaga yetmagan bolalar uchun sudning bir necha hal qiluv qarorlariga asosan bir ota (ona)dan undirilayotgan alimentning umumiy miqdori belgilangan miqdordan oshib ketsa, aliment to'lovchi ota (ona) aliment to'lash haqidagi sudning hal qiluv qarori yoki sud buyrug'i kimning foydasiga chiqqan bo'lsa, o'sha shaxslarning har biriga nisbatan alimentning miqdorini tegishincha kamaytirish to'g'risida da'vo taqdim etishi mumkin. Alimentning miqdorini kamaytirishga asos bo'lgan holatlar tugagan taqdirda, voyaga yetmagan bolalar uchun aliment oluvchi shaxs belgilangan miqdorda aliment undirish to'g'risida da'vo bilan sudga murojaat qilishga haqlidir. Tug'ilmagan farzandingiz uchun u tug'ilgunga qadar aliment puli olishingiz qonunda mavjud emas.

### O'G'LIMNING FAMILIYASINI O'ZGARTIRSAM BO'LADIMI?

– Turmush o'rtog'im bilan rasman ajrashganmiz. U xorijda yashaydi. Oilali. O'g'limni o'z familiyamga olishim uchun otasining roziligi kerak ekan. Sobiq turmush o'rtog'im qayerda yashashini bilmayman. Uning rozilgisiz ham o'g'limning familiyasini o'zgartirsam bo'ladimi?

**Nilufar KARIMOVA,**  
Oqdaryo tumani

– Oila kodeksining 226-moddasiga ko'ra, familiyani, ismni va otaning ismini o'zgartirish haqidagi arizalar ariza beruvchi o'n olti yoshga to'lgandan keyin fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan, ushbu shaxsning doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tgan joydan qat'i nazar, ko'rib chiqiladi. Farzandingiz 16 yoshga to'lmagan bo'lsa, o'zi mustaqil ariza bera olmaydi, shu sababli bu masala ota yoki onaning arizasiga muvofiq hal etiladi. Shuningdek, kodeksning 227-moddasiga

asosan o'n olti yoshga to'lmagan bolalari familiyasini o'zgartirish masalasi ota-onaning kelishuviga binoan, bunday kelishuv bo'lmaganda esa, vasiylik va homiylik organlari tomonidan hal etiladi. Sobiq turmush o'rtog'ingiz chet elda bo'lganligi, qolaversa, o'rtangizda kelishuv bo'lmaganligi hisobga olinib, familiya o'zgartirish uchun vasiylik va homiylik organiga murojaat qilishingiz kerak.

### YERDAN ISTAGAN MAQSADDA FOYDALANSAK BO'LADIMI?

– Ma'lum bir maqsad uchun egalik huquqi asosida ajratib berilgan yerdan boshqa maqsadda foydalansa bo'ladimi?

**Eldor NORIMOV,**  
Samarqand shahri

– Yer kodeksining 36-moddasi yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarning bekor qilinishi deb nomlanadi. Ushbu moddaga ko'ra, yer uchastkasidan belgilanganidan boshqa maqsadlarda foydalanilganida yerdan doimiy yoki muddatli yoxud ijara asosida foydalanish huquqi bekor qilinadi.



### YILLIK MEHNAT TA'TILI QACHON BERILADI?

– Bolani parvarishlash ta'tilidan foydalanayotgan xodimga yillik mehnat ta'tili qachon beriladi?


**Umida TO'RABOYEVA,**  
Ishtixon tumani

– Mehnat kodeksining 400-moddasiga ko'ra, homilador ayollarga va bola tuqqan ayollarga yillik mehnat ta'tili, ularning xohishiga ko'ra, tegishincha homiladorlik va tug'ish ta'tilidan oldin yoki undan keyin beriladi. Homilador ayollarni yillik mehnat ta'tilidan chaqirib olishga yo'l qo'yilmaydi. Bolani parvarishlash ta'tilidan foydalanayotgan xodimga yillik mehnat ta'tili, uning xohishiga ko'ra, bola parvarishlash ta'tilidan oldin yoxud undan keyin beriladi.

### MODDIY YORDAM BIR MARTA KO'RSATILADIMI?

– Men “Yoshlar daftari”ga kiritilganman. Bir martalik moddiy yordam oldim, menga boshqa yordam ko'rsatilmaydimi?

**Shahnoza IBRAGIMOVA,**  
Samarqand shahri



– Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi “Yoshlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga ko'ra, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan moddiy ahvoli qiyin yoshlarga BHMning 4 baravarigacha miqdorda bir martalik moddiy yordam ko'rsatiladi. Siz ushbu yordam pulini olgan bo'lsangiz, yoshlar yetakchisi tavsiyanomasi asosida boshqa imkoniyatlardan ham foydalanishingiz mumkin.

### QOIDABUZAR HAYDOVCHIGA JAZO BORMI?

– Avtomashinamning orqasidan kelib, urib qochib ketgan qoidabuzar haydovchiga javobgarlik bormi? IIB-ga murojaat qilsam ham, hech qanday chora ko'rmayapti?

**Eldor BURXONOV,**  
Samarqand shahri

– Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 137-moddasiga ko'ra, yo'l-transport hodisasi qatnashchilarining belgilangan qoidalarni buzgan holda hodisa yuz bergan joydan ketib qolishi, bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Yo'l-transport hodisasi qatnashchilarining belgilangan qoidalarni buzgan holda hodisa yuz bergan joydan ketib qolishi, agar ushbu yo'l-transport hodisasi jabrlanuvchiga yengil tan jarohati yoki ancha miqdorda moddiy zarar yetkazilishiga olib kelgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravari miqdorida jarima solishga yoki transport vositalarini boshqarish huquqidan bir yil muddatga mahrum etishga yoxud o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi. IIB tomonidan javobgarlik belgilanmayotgan bo'lsa, prokuratura organlariga murojaat qiling.

### ALIMENTDAN TASHQARI MODDIY YORDAM OLIISH MUMKINMI?

– Sobiq turmush o'rtog'im alimentni kam to'lash uchun oylik ish haqini kamaytirib olgan. Hozirda bolamning ehtiyoji uchun aliment puli yetmayapti. Shu sharoitda davlat tomonidan menga moddiy yordam ko'rsatiladimi?

**Munojat XUSANOVA,**  
Samarqand shahri

– Oila kodeksining 96-99-moddalariga ko'ra, aliment O'zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida pul yoki natura tarzida olingan barcha turdagi daromadlardan ushlab qolinadi. Turmush o'rtog'ingizning aliment summasini kamaytirish uchun ataylab ish haqini kam qilib ko'rsatishi qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi. Qolaversa, turmush o'rtog'ingizning ish haqidan boshqa daromadlari mavjud bo'lsa, aliment tayinlashda ular ham hisobga olinadi. Mahalla fuqarolar yig'iniga murojaat qilsangiz, oilaviy va moddiy sharoitingiz o'rganilib, davlat tomonidan sizga boshqa moddiy yordam turlari ham ko'rsatilishi mumkin.

### OYLIGIMIZNI QANDAY OLAMIZ?

– Men ish boshlagan korxonada bankrot deb topilib, to'lovga qobiliyatsizligi tufayli ishchilarning oylik maoshlarini to'lab bermayapti. Endi oyligimizni qanday olamiz?

**Safarmurod YAQUBOV,**  
Narpay tumani

– Mehnat kodeksining 100-moddasiga ko'ra, tugatilayotgan tashkilotlarda mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan xodimlarga kompensatsiyalarni to'lash Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Siz mazkur toifaga mansubsiz, agar haqiqatan ham sizning ishxonangizda oylik maoshlarni to'lash bo'yicha balans mavjud bo'lmasa, ish haqingiz uchun to'lovlar davlat hisobidan amalga oshiriladi.



### REEKSPORT REJIM NIMA?

– Reeksport bojxona rejimi haqida ma'lumot bersangiz?

**Muslimjon YUSUPOV,**  
Jomboy tumani

– Bojxona kodeksining 32-moddasiga ko'ra, reeksport bojxona rejimi shunday rejimki, bunda bojxona hududiga ilgari olib kirilgan tovar yoxud bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarni qayta ishlash mahsuloti bojxona hududidan bojxona bojlari va soliqlar to'lanmagan, tovarga nisbatan iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda, ushbu kodeksning 35-moddasida nazarda tutilgan hollarda esa, uni olib kirishda to'langan bojxona bojlari va soliqlar summalari qaytarilgan holda olib chiqiladi.

Reeksport bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni bojxona hududidan amalda olib chiqish bojxona deklaratsiyasi qabul qilingan kundan e'tiboran olti oydan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Davomi. Boshlanishi 1-betda



# Ayol

## ilmi bo'lsa, MILLAT ILMLI BO'LADI


mavjud muammolari ijobiy hal qilindi va bartaraf etildi, 1 ming 931 nafar olim-ayollar hamda turli tanlov va olimpiadalarda g'olib bo'lgan xotin-qizlar, innovatsion loyihalarni yaratgan nogironligi bor iqtidorli qizlar munosib rag'batlantirildi.

Xuddi shunday tadbirlar Toshkent davlat yuridik universitetida ham o'tkazildi. "Olima ayollar – millat kelajagining tarbiyachisi" shiori ostida "Uch avlod olim-ayollar uchrashuvi", "Science-Week: Ilmi ayol – jamiyat ko'zgusi" shiori ostida olim-ayollarni qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlar uchun ilm-fan bilan shug'ullanishlari bo'yicha yaratilgan kitoblar va adabiyotlar taqdimoti, iqtidorli talaba-qizlarni fan sohasiga kengroq jalb etish, olim-ayollar safini kengaytirish, ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida talaba-qizlar orasida "Ilm – saodat kaliti" mavzusida insholar tanlovi shular jumlasidandir. Ushbu uchrashuvlardan maqsad, albatta, huquq olamining olim-ayollari, ilm darg'alarining ilmiy, kasbiy va hayotiy tajribalari bilan yaqindan tanishish, ilmiy faoliyat yuritayotgan yosh olimlarning uzluksiz faoliyatlarining o'ziga xos jihatlari o'rganish hamda o'z kelajaklari uchun "Yo'l xarita" sini belgilab olishdir.

**Umida HAYDAROVA,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
katta o'qituvchisi

BMT Bosh Assambleyasining 2015-yil 22-dekabrda Resolyutsiyasi bilan 11-fevral – Ilm-fan sohasidagi ayollar va qizlar xalqaro kuni sifatida e'lon qilingan. Har yilgidek, joriy yilda ham ushbu sana mamlakatimizda keng nishonlandi. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 19-yanvardagi yig'ilish bayoniga muvofiq, 12-17-fevral kunlari respublikamizning 208 ta tuman va shaharlari ta'lim muassasalari va mahallalarida "Ilmi ayol – jamiyat ko'zgusi" mavzusida haftalik tashkil qilindi. Qator vazirlik va idoralar, ayniqsa, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar hamda maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda 5 ta xalqaro forum, 20 ta respublika miqyosidagi ilmiy anjuman va forumlar, 60 dan ziyod seminarlar, 9 mingdan ortiq uchrashuv, davra suhbatlari va tanlovlar tashkil etildi. 1 ming 182 nafar nafaqadagi olim-ayollarning holidan xabar olindi, 265 nafar olimlarning

Shu o'rinda Nelson Mandelaning "Axlalni aqlat qutisiga tashlashni bilmaydigan xalqdan, kerakli shaxsni kerakli mansabga qo'yishni kutma" degan so'zlari yodga tushadi. Har bir shaxs, avvalo, o'zini isloh qilishni bilishi va atrofdagi yoshlarga o'rnak bo'la olishi lozim.



har jihatdan mukammal inson bo'lib shakllanishi muhim o'rin tutadi. Talaba yoshlarni har tomonlama yetuk, barkamol kadr qilib tayyorlashda Toshkent davlat yuridik universiteti tomonidan ham bir qator islohotlar olib borilmoqda. Universitetning professor-o'qituvchilari va talaba yoshlar tomonidan "Islohotlarga daxldorman" shiori ostida Toshkent shahar maktablari bo'ylab targ'ibot loyihasi olib borilgani bunga yorqin misoldir. Targ'ibot loyihasi "tengosh tengdoshga" yo'nalishida olib borilayotgani bejiz emas. Oliyoghdagi talaba yoshlar loyiha doirasida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining 2023-yil 22-dekabrda o'tkazilgan kengaytirilgan yig'ilishidagi Prezidentimiz nutqi hamda mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning mazmun-mohiyatini maktab o'quvchilariga yetkazishdi.

## MA'NAVIYAT – ENG MUHIM VA HAMMA SHUG'ULLANISHI KERAK BO'LGAN MASALA

Agar inson o'zini xalqning bir zarrachasi deb hisoblasa, xalqni o'ylasa va uning manfaati yo'lida mehnat qilsagina, ma'naviy axloqqa aloqador bo'ladi. Yoshlarni balog'at yoshiga yetguncha tarbiyalash, ularni vatanparvar, madaniyatli, ma'rifatli etib tarbiyalash nafaqat ota-onalar, ustozlarning, balki tengdosh yoshlarning ham vazifasidir. Mamlakatimiz yoshlarining kelajakda o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lib yetishishi, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishida, birinchi navbatda, ularning ma'naviy kamoloti,

Ma'naviyat – eng muhim va hamma shug'ullanishi kerak bo'lgan masala hisoblanadi. Shunday ekan, jamiyatga yangi nur, yangi ziyo kirib borishi har bir jamiyat a'zosining ham asosiy ishiga aylanishi lozim. Zotan, har qaysi davlat, har qaysi xalq intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir.

**Noila MUSTAFOYEVA,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
katta o'qituvchisi

## PORA OLUVCHI EMAS,



## BERUVCHI HAM JAVOBGAR!

**Korrupsiya mansabdor shaxsning o'z vakolatidan foydalanib, o'zining manfaatlarini ko'zlab, axloq va odob qoidalarini buzgan holda amalga oshirgan jinoyi harakatlari yig'indisidir. Bu jinoyi harakatlari pora olish vositasida amalga oshiriladi. Sodda qilib aytganda, pora ish bitkazish yo'lidir. Mayda poraxo'rliklardan ildiz otgan korrupsiya ortidan bir qancha jinoyatlar, jumladan, talon-toroj qilish, kontrabanda, odil sudlovga qarshi jinoyi harakatlari, bojxona, soliq sohasidagi jinoyatlar sodir bo'ladi.**

Korrupsiya deganda mansabdor shaxslar tomonidan ularga berilgan huquq va imkoniyatlardan shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanishni ifodalovchi siyosiy yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoyi faoliyat tushuniladi.

Korrupsiya uchun faqat pora oluvchi mansabdor shaxslar emas, balki beruvchi shaxs ham javobgar bo'ladi. Korrupsiyaga qarshi kurashishning

asosiy prinsiplari qonuniylik, fuqarolarning huquqi, burchlari, erkinligi va qonuniy manfaatlarining ustunligi, har qanday ko'rinishdagi korrupsiyaning oldini olish bo'yicha choralarning ustunligi va mas'uliyatni his etishdir.

Keyingi yillarda korrupsiyaga aloqador bo'lgan jinoyatlar nisbatan kamaygan bo'lsa-da, lekin, korrupsiyaga qarshi kurashish borasida hali qilinishi

kerak bo'lgan ishlar talaygina. Xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir tushuntirish ishlarini amalga oshirish, huquqiy tarbiya va ta'limni, ilmiy-amaliy tadbirlarni tashkil etish, o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlarni ishlab chiqish, ilmiy-amaliy tadbirlar o'tkazish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Korrupsiya davlat va jamiyat hayotida juda ko'p salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Birinchidan, u tinchlik, adolat, qonun ustuvorligi kabi qadriyatlarining buzilishiga olib keladi va insonlar o'rtasida ularning mavjudligi to'g'risidagi ishonchni so'ndiradi. Ikkinchidan, bozor iqtisodiyotida sog'lom raqobatning yo'qolishiga zamin yaratadi. Uchinchidan, jamiyatda nosog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitning shakllanishiga sabab bo'lib, konstitutsiyaviy prinsiplarining buzilishiga olib keladi.

Qanday choralar ko'rgan ma'qul?

Bunda quyidagilar muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirib borish zarur. Shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik

uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipi amalda ta'minlanishi kerak.

Aholi o'rtasida huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ'ibotga doir chora-tadbirlarning sifati va miqdorini yanada oshirish zarur. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning o'z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo'yilishini ta'minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir kompleks tadbirlar ishlab chiqish lozim.

Davlat organlarining mansabdor shaxslari ustidan keng jamoatchilik nazoratini o'rnatish kerak. Kelgusida mazkur illatning oldi olinmasa, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan, qat'iy hayotiy e'tiqod va qarashlarga ega bo'lgan, milliy mentalitetimizga yot zararli ta'sirlarga qarshi turishga qodir bo'lgan yoshlarni tarbiyalashda ularning kelajagi uchun salbiy ta'sir etishi muqarrar.

**Dilrabo TOPILDIYEVA,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
o'qituvchisi

## 6 SUD ZALIDAN

**Beshariq tumanining “Baxmal” mahallasida yashovchi Lutfilla Ro’ziyev (ism-shariflari o’zgartirilgan) shaxsiy “GAZ-53” rusumli avtomashinasida yuk tashib tirikchilik qilardi.**



### TA’MAGIR “XODIM” JINOYAT USTIDA QO’LGA TUSHDI

Ammo 2023-yil sentabr oyining boshida haydovchi yigitning tinchi buziladigan hodisa yuz berdi. Ya’ni, uni Beshariq tuman IIB yo’l harakati xavfsizligi guruhi binosiga chaqirib, 2023-yil 27-avgust kuni dehqon bozori yaqinida fuqaro J. Egamberdiyevani turtib ketganini aytishadi.

– Men hech kimni turtganim yo’q. Chunki rulda hamisha hushyor yuraman, – deya e’tiroz bildiradi Lutfilla.

– Ayol o’sha kuniyoq viloyat ichki ishlar boshqarmasining “102” raqamiga murojaat qilgan. Agar voqea joyidagi videokuzatuv kameralari ko’zdan kechirilsa, aybingiz yanada og’irlashadi, – deydi guruh katta inspektori vahimali ohangda.

Shundan keyin guruhda norasmiy ravishda kompyuter operatori vazifasini bajaruvchi xodim Sobir Abdulazizov haydovchidan tushuntirish xati oladi. So’ng jabrlanuvchi J. Egamberdiyeva sud-tibbiy ekspertizasidan o’tkaziladi. Ekspertiza xulosasiga asosan ayolning qo’li singani ma’lum bo’ladi. Mazkur holatdan esa S. Abdulazizov “unumli” foydalanib qolishni o’ylaydi.

– Tezroq harakatingizni qilmasangiz, ishingiz tergovga oshib ketadi, – deb Lutfilla Ro’ziyevning ko’ngliga g’ulg’ula soladi u.

Norasmiy xodim shunday deb ayni ishni “bosdi-bosdi” qilish uchun 400-500 AQSh dollari miqdorida “xarajati” borligini aytadi. Biroq Lutfilla pul berishga shoshmaydi. Hadeganda undan darak bo’lavermagach, Sobir yana sim qoqadi.

– Siz juda xotirjamsiz. Lekin “delo” prokuraturaga chiqib ketsa, ahvolingiz og’irlashadi, – deya vahima bilan ikkinchi marotaba pulga ishora qiladi u.

– Ikki yuz olib kelsam bo’ladimi?, – so’raydi talab qilingan pulni berishga moddiy imkoniyati yetmasligini tushuntirib.

– Mayli, men boshliq bilan gaplashib ko’raman. Hech yo’qsa uch yuz tayyorlab keling, – deydi ta’magir xodim go’yoki o’zini yaxshilik qilayotgandek ko’rsatib.

Ammo S. Abdulazizovning talabi noqonuniy ekanini yaxshi bilgan L. Ro’ziyev Davlat xavfsizlik xizmatining Farg’ona viloyati bo’yicha boshqarmasi boshlig’iga ariza bilan murojaat qiladi. Oqibatda ertasi kuni Sobir Abdulazizov Lutfilla Ro’ziyevdan 300 AQSh dollarini olgan vaqtda ushlanadi.

Shundan so’ng “qahramon”imizga nisbatan jinoyat ishi qo’zg’atiladi. Mazkur ishni ko’rib chiqqan jinoyat ishlari bo’yicha Qo’qon shahar sudi uni Jinoyat kodeksining tegishli moddalar bilan aybdor deb topib, ozodlikdan mahrum qilish jazosiga mahkum etdi.

**Po’latjon MAMATUSMONOV,**  
jinoyat ishlari bo’yicha Qo’qon shahar sudi sudyasi



### ALIMENT TO’LAMAGAN OTAGA OLTI OY QAMOQ JAZOSI TAYINLANDI

**Bolajon xalqmiz. O’zi yemay bolasiga yediradigan, o’zi kiymay bolasiga kiydiradigan, bolasini boshidan balandga ko’tarib g’ururlanadigan ajoyib millatimiz. Dunyoning barcha boyligi bolalarning bir tomchi ko’z yoshiga arzimaydi deb iddaolar qilishni yaxshi bilamiz, ammo kezi kelganda ulardan mehrimizni darig’ tutib, bemehr, toshbag’irga aylanamiz. Oila buzilib, er-xotin ikki tarafga bo’linib ketar chog’ida begunoh, panohsiz bolalar jabr ko’radi, ayrim holatlarda boshpanasiz, himoyasiz qoladi.**

Sudlarda ko’rilayotgan aksariyat ishlar voyaga yetmagan farzandlarning ta’minoti bilan bevosita bog’liqligi, afsuski, fakt. Joriy yilning yanvar oyida jinoyat ishlari bo’yicha Boyovut tuman sudi tomonidan ikki nafar voyaga yetmagan farzandiga aliment to’lamasdan kelgan fuqaro Abdulla Norboyev (ism-familiyalar o’zgartirib berilmoqda) ishi ko’rib chiqildi.

Bu shaxsga avvalroq – fuqarolik ishlari bo’yicha Boyovut tumanlararo sudining 2020-yil 30-iyuldagi sud buyrug’iga asosan aliment undiruvchi Dilbar

Norboyevaning foydasiga 2 nafar voyaga yetmagan farzandining moddiy ta’minoti uchun har oydagi ish haqi va boshqa daromadlarining 1/3 qismi miqdorida aliment undirish belgilangan. Biroq u ijtimoiy foydali mehnat bilan shug’ullanmasdan, Majburiy ijro byurosi Boyovut tuman bo’limi davlat ijrochisining ogohlantirishlariga qaramasdan, 2020-yil iyul oyidan 2023-yil iyun oyiga qadar hisoblangan 50 mln 680 ming so’m aliment pulini to’lashdan bo’yin tovlab kelgan. Shu sababdan unga 2023-yil 5-iyunda jinoyat ishlari bo’yicha Boyovut tuman sudi tomonidan 15 sutka ma’muriy qamoq jazosi tayinlangan. Biroq A. Norboyev bundan ham o’ziga tegishli xulosa chiqarmasdan, o’tgan yilning iyun oyidan dekabr oyiga qadar 6 oy muddatda 9 mln 139 ming 419 so’m aliment to’lovlarini to’lashdan yana qasddan bo’yin tovlagan. Oilaviy kelishmovchiliklar tufayli salkam 30 yillik turmushning buzilgani, farzandlarning ota yoki ona mehrisiz qolganini muhokama qilmoqchi emasmiz. Hayot faqat quvonchlardan, tekis yo’llardan iborat emas. Ammo o’z farzandlarini moddiy ta’minotsiz qoldirishga, qonunlarda belgilab qo’yilgan burchini ado etmaslikka hech bir ota-onaning haqqi yo’q.

Sudlanuvchi suddagi ko’rsatmasida aliment qarz-dorligini to’lashi lozimligi haqida bir necha marta rasman va og’zaki ogohlantirilganiga qaramasdan aliment pullarini to’lay olmagan, imkoni bo’lishi bilan ushbu qarz-dorlikni to’lab berishini, aybiga to’liq iqrorigini, qilmishidan pushaymonligini bildirdi.

So’nggi pushaymondan nima naf? Sud A. Norboyevga yetkazilgan moddiy zararni qoplamaganini, jabrlanuvchining unga nisbatan da’vosi borligini inobatga olib, ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlashni lozim deb topdi. Sudning hukmiga ko’ra, A. Norboyev Jinoyat kodeksining tegishli moddasiga ko’ra aybdor deb topildi hamda unga 6 oy ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

**Bahodir QORAYEV,**  
jinoyat ishlari bo’yicha Boyovut tuman sudi raisi,  
**Marusa HOSILOVA,**  
“Inson va qonun” muxbiri

**Iqtisodiyot sohasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo’riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish – iqtisodiy sudlarning asosiy vazifasi hisoblanadi.**

## ENDI BIR YIL ICHIDA TAFTISH TARTIBIDA SHIKOYAT BERISH MUMKIN

O’zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda “Sud qarorlarining qonuniyligi va asosiligidini tekshirish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksiga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi qonuni qabul qilindi va 2024-yil 1-yanvardan kuchga kirdi.

Eski tartibga ko’ra, agar ishda ishtirok etuvchi shaxslar, shuningdek, ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzilgan shaxslar bir oy ichida apellyatsiya shikoyatini (protestini) berish va ikki oylik uzrli muddatini o’tkazib yuborsa, ularning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari ustidan kassatsiya tartibida shikoyat (protest) berish hamda ushbu ishlarni kassatsiya tartibida qayta ko’rish huquqi cheklangan edi.

Mazkur qonun bilan kiritilgan o’zgartirishlar bu muammoni bartaraf etib, bir oy ichida apellyatsiya shikoyatini (protestini) berishga ulgurmagani taqdirda, ya’ni sudning hal qiluv qarori bir oydan so’ng qonuniy kuchga kirgandan keyin ham, mazkur sud hujjati ustidan olti oy davomida Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining iqtisodiy ishlar bo’yicha sudlov hay’atiga kassatsiya tartibida shikoyat (protest) qilish huquqini bermoqda.

Bundan tashqari, ushbu qonun bilan, sud qarorlarining qonuniyligi va asosiligidini tekshirishning mutloq yangi tartibi joriy qilindi yoki sud hujjatlarini taftish tartibida qayta ko’rish bo’yicha yangi instan-

siya joriy qilindi. Apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko’rilgan tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlarining qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori, shuningdek, apellyatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudining qarori ustidan sud qarorlaridan norozi bo’lgan ishda ishtirok etuvchi shaxslar, ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquqlari va majburiyatlarini to’g’risida sud hal qiluv qarori qabul qilgan shaxslar tomonidan Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlariga taftish tartibida shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

Taftish tartibidagi shikoyat (protest)larni, birinchi instansiyasi sudining hal qiluv qarori, ajrimi, qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e’tiboran bir yil ichida berish imkoniyati yaratildi.

Birinchi instansiyasi, apellyatsiya yoki kassatsiya instansiyasi, hamda taftish instansiyasida qabul qilingan sud hujjatlarini, Oliy sudning Iqtisodiy ishlar bo’yicha sudlov hay’atida qayta taftish tartibida ko’rib chiqish imkoni berilmoqda.

Shuningdek, eng muhim va ahamiyatli o’zgartirishlardan biri bu, apellyatsiya va kassatsiya instansiyalariga, birinchi instansiyasi sudlarida moddiy va (yoki) protsessual huquq normalarining buzilgani yoxud noto’g’ri qo’llanilgani aniqlansa, avvalgidek hal qiluv qarorini bekor qilib, ishni yangidan ko’rish uchun birinchi instansiyaga yuborilishiga chek qo’yildi.

**Nurbek UMAROV,**  
Navoiy viloyat sudi sudyasi

**Mehnat shartnomasiga qo'yiladigan barcha asosiy talablar Mehnat kodeksining 104-115-moddalarida keltirilgan. Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining eski tahriridan asosiy farqlaridan biri shundaki, yangi kodeksda mehnat shartnomasi ni bekor qilish tushunchasi nazarda tutilgan.**

## MEHNAT SHARTNOMASINI TUGATISHDA BILISHIMIZ LOZIM BO'LGAN QOIDALAR

Mehnat kodeksining 155-moddasi ikkinchi qismida mehnat shartnomasini bekor qilishning asoslari sanab o'tilgan, taraflarning kelishuvi, muddatning tugashi, xodimning tashabbusiga ko'ra bekor qilish, ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilish shular jumlasidandir. Bundan tashqari, tashkilot mulkdorining almashgani, uning qayta tashkil etilgani, tashkilotning idoraviy taalluqliligi (bo'ysunuvi) o'zgartirishi munosabati bilan xodimning ishini davom ettirishni rad etishi, xodimning yangi mehnat shartlarida ishlashni davom ettirishni rad etishi, xodimning ish beruvchi bilan birga boshqa joyga ishlash uchun ko'chishni rad etishi ham mehnat shartnomasining bekor qilinishiga asos bo'lishi mumkin. Shuningdek, xodimning tibbiy xulosaga muvofiq sog'lig'ining holatiga ko'ra qarshi ko'rsatma bo'lmagan boshqa ishga o'tkazishni rad etishi yoxud ish beruvchida tegishli ish bo'lmagan taqdirda ham mehnat shartnomasi bekor qilinadi. Taraflarning ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlar, yangi muddatga saylanmaganlik yoki tanlovdan o'tmaganlik yoxud saylovda, tanlovda ishtirok etishni rad etish ham mehnat shartnomasini bekor qilishga asos bo'ladi.

Agarda xodim sog'lig'ining holatiga ko'ra, tibbiy xulosaga muvofiq yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'sirini istisno etadigan, sog'lig'ining holati bo'yicha qarshi ko'rsatma bo'lmagan ishga doimiy o'tkazishga muhtoj bo'lsa, ish beruvchi, bo'sh (vakant) ish o'rnini mavjud bo'lgan taqdirda, xodimni uning roziligi bilan shunday ishga o'tkazishi shart.

Agar bunday hollarda xodim boshqa ishga o'tishni rad etsa yoki ish beruvchida bo'sh (vakant) ish o'rnini mavjud bo'lmagan sababli xodimga tegishli ish taklif qilinmasa, ish beruvchi birinchi navbatda xodimni ishdan chetlashtirishi shart.

Mehnat kodeksining 140-moddasiga ko'ra, xodimni boshqa ishga doimiy o'tkazishga faqat uning roziligi bilan yo'l qo'yilishi sababli, xodim sog'lig'ining holatiga ko'ra, tibbiy xulosaga muvofiq yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'sirini istisno etadigan, sog'lig'ining holati bo'yicha qarshi ko'rsatma bo'lmagan ishga doimiy o'tkazilayotganda ham ish beruvchi xodimning roziligini olishga majbur.

Keyingi asosiy masala – bu bo'sh joyning mavjudligidir. Ya'ni, xodim boshqa ishga doimiy o'tkazilayotgan vaqtda tashkilotda bo'sh ish o'rnini mavjud bo'lsa, ish beruvchiga bunday o'tkazish majburiy hisoblanadi. Xodim boshqa ishga o'tkazilishni rad etgan taqdirda, shuningdek, agar ish beruvchida xodim sog'lig'i holati bo'yicha qarshi ko'rsatma bo'lmagan boshqa ish bo'lmasa, xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi xodim sog'lig'i

holati bo'yicha qarshi ko'rsatma bo'lmagan boshqa ishga o'tkazilishni rad etgani yoxud ish beruvchida tegishli ish bo'lmagan munosabati bilan bekor qilinishi mumkin. Bunday holatlarda xodimga Mehnat kodeksining 173-moddasiga muvofiq ishdan bo'shatish nafaqasi to'lanadi va kodeksning 100-moddasida nazarda tutilgan kafolatlar taqdim etiladi. Mehnat kodeksining 100-moddasiga ko'ra, ayrim holatlarda ish qidirish davrida o'rtacha oylik ish haqining ishdan bo'shatish nafaqasi hisobga olingan holda, biroq ko'pi bilan ikki oyga (ayrim holatlarda uchinchi oyga ham) saqlanib qolishi xodimlar uchun kafolatlangan.

Mehnat kodeksining 134-moddasiga muvofiq, mehnat shartlari deganda ish beruvchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasiga muvofiq xodimning mehnat faoliyati amalga oshiriladigan ijtimoiy va ishlab chiqarish omillarining majmui tushuniladi. Ijtimoiy omillar jumlasiga mehnatga haq to'lash miqdori, ish vaqtining, ta'tilning davomiyligi va boshqa shartlar kiradi. Ishlab chiqarish omillari jumlasiga texnika, sanitariya, gigiyenaga oid, ishlab chiqarish-maishiy va boshqa shartlar kiradi.

Amaliyotda, taraflarning kelishuviga ko'ra mehnat shartnomasini bekor qilish tomonlar uchun, ayniqsa, ish beruvchilar uchun mehnatga oid munosabatlarni tugatishning eng qulay (oson) usuli hisoblanadi. Mehnat kodeksining 157-moddasiga ko'ra, nomuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasi, shuningdek muddatli mehnat shartnomasi istalgan vaqtda taraflarning kelishuviga ko'ra bekor qilinishi mumkin.

Mehnat shartnomasini taraflarning kelishuviga ko'ra bekor qilish mehnat shartnomasiga doir qo'shimcha kelishuv bilan yozma shaklda rasmiylashtiriladi, unda mehnat shartnomasi bekor qilinadigan sana, qo'shimcha kelishuv tuzilgan sana va taraflarning rekvizitlari ko'rsatilishi shart.

158-moddaga ko'ra, muddatli mehnat shartnomasi uning amal qilish muddati tugashi bilan bekor qilinadi. Mehnat shartnomasini uning amal qilish muddati tugagani munosabati bilan bekor qilish to'g'risida yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarni ushbu asos bo'yicha tugatishga qaror qilgan taraf boshqa tarafni mehnat shartnomasi bekor qilinguniga qadar kamida uch kalendar kun oldin yozma shaklda ogohlantirishi kerak, bundan ish joyi (lavozimi) saqlanayotgan xodim yo'q bo'lgan davrga tuzilgan muddatli mehnat shartnomasining amal qilish muddati tugaydigan hollar mustasno.

Mehnat kodeksining 132-moddasiga ko'ra, dastlabki sinov muddati tugaguniga qadar taraflarning har biri ikkinchi tarafni kamida uch kun oldin yozma shaklda ogohlantirgan holda mehnat shartnomasini bekor qilishga haqli. Ish beruvchi xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini sinov natijasi qoniqarsiz bo'lganda, xodimni sinovdan o'tmagan deb e'tirof etish uchun asos bo'lib xizmat qilgan sabablarni ko'rsatgan holda o'z tashabbusiga ko'ra, dastlabki sinov davrida bekor qilishga haqli. Xodimning tashabbusi bilan mehnat shartnomasini dastlabki sinov davrida bekor qilish uchun xodimning yozma arizasi asos bo'lib, unda xodimning mehnatga oid munosabatlarni haqiqatda tugatish istagi aks ettirilishi kerak. Bunda xodimni mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilishga undagan sabablar ahamiyatga ega emas.

Xumoyun SOYIPOV,

Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi

SO'RAGAN EDINGIZ

## QAYTA TAYYORLOV DAVRIDA XODIMNING ISH JOYI SAQLANADIMI?



– Qayta tayyorlovdan o'tish davomida xodimlarning ish joyi va ish haqi saqlanadimi?

Mahbuba KAMOLOVA,  
Farg'ona viloyati

– Mehnat kodeksining 370-moddasiga ko'ra, xodimlarni qayta tayyorlashga va ularning malakasini oshirishga bo'lgan zaruratni ish beruvchi belgilaydi. Bundan xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish zarurati mehnat to'g'risidagi qonunchilikda hamda mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda belgilangan hollar mustasno.

Xodimlarni qayta tayyorlashga va o'z malakasini oshirishga yuborish tartibi mehnat to'g'risidagi qonunchilikda hamda mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda, mehnat shartnomasida belgilanadi.

Xodim ish beruvchi va xodim uchun majburiy bo'lgan qayta tayyorlashga yoki malaka oshirishga yuborilgan taqdirda, ish beruvchi qayta tayyorlash yoki malaka oshirish davrida xodimning ish joyini (lavozimini) va o'rtacha ish haqini saqlab qolishi shart.

Agar qayta tayyorlash yoki malaka oshirish ixtiyoriy ravishda amalga oshirilsa, ish beruvchi qayta tayyorlash yoki malaka oshirish vaqtida xodimning ish joyini (lavozimini) saqlab turishi shart. Xodimning o'rtacha ish haqini saqlab qolish masalasi jamoa shartnomasida, ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishilgan holda qabul qilinadigan ichki hujjatda yoxud mehnat shartnomasi taraflarining kelishuviga ko'ra hal qilinadi.

Xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari, zarur kasblar hamda mutaxassisliklarning ro'yxati ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Masalan, ish beruvchi, deylik, vakant turgan shtatni to'ldirish uchun kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishuvga ko'ra belgilangan ro'yxat tuzadi. Ish beruvchi tomonidan xodim majburiy tartibda qayta tayyorlovdan o'tish uchun yuborilsa, qayta tayyorlov davrida xodimning o'rtacha ish haqi va ish joyi saqlanadi.

Lekin xodimlar o'zlari xohlab, kasbini o'zgartirish maqsadida qayta tayyorlov kursiga borsa, bu holda xodimning faqat ish joyi saqlanadi, ish haqi esa saqlanmaydi.

Savolga Farg'ona shahar yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i Sherzod TOLIBOV javob berdi

## E'LONLAR

Xorazm viloyati adliya boshqarmasi tomonidan Xorazm tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Allayarova Mehribon Urinovnaning xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasining amal qilishni tugatish to'g'risidagi arizasiga asosan boshqarmaning 2024-yil 9-fevraldagi 22-um-son buyrug'i bilan notarius M. Allayarovaga Xorazm viloyati adliya boshqarmasi tomonidan 2020-yil 8-sentabr kuni xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi HZ №0038-son bilan berilgan litsenziyaning amal qilishi va notariuslik maqomi tugatildi.

Andijon viloyati adliya boshqarmasining 2024-yil 9-fevraldagi 46-um-son buyrug'iga asosan advokat Usmonov Jaloliddin Abdixoxorovichga 2023-yil 17-noyabrda berilgan L-70663138 va Akramov A'zamjoniga 2023-yil 4-noyabrda berilgan L-70662241 raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi

litsenziyalarning amal qilishi va advokatlik maqomi tugatildi.

Buxoro viloyati adliya boshqarmasi tomonidan Buxoro tumanlararo ma'muriy sudining 2023-yil 26-dekabrda hal qiluv qaroriga asosan adliya boshqarmasining 2024-yil 30-yanvardagi buyrug'i bilan "Nozima Ro'ziyevning advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi hamda advokatlik maqomi 2 oy muddatga to'xtatildi.

"Notariat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 152-moddasi va Qashqadaryo viloyati adliya boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2024-yil 6-fevraldagi 1-son yig'ilish qaroriga asosan Kitob tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shovkatov Shuxrat Shovkat o'g'liga (litsenziya KS 0018, 2020-yil 24-aprel) adliya bosh-

qarmasi tomonidan berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi 15 kun muddatga, ya'ni 2024-yilning 12-fevral kunidan 2024-yilning 27-fevral kuniga qadar to'xtatildi.

O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi qonunining 16-moddasiga asosan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligining 2024-yil 23-yanvardagi 13-um-sonli buyrug'i bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri, Nazarxon ko'chasi 2-uyda joylashgan "PRINTSIP" advokatlik byurosi advokati Kojanazarov Allaniyaz Sultamuratovichga 2018-yil 29-dekabrda berilgan QR 000060-sonli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi hamda advokatlik maqomi tugatildi.

O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi qonunining 16-moddasiga asosan, Qoraqalpog'iston

Respublikasi Adliya vazirligining 2024-yil 16-fevraldagi 37-um-sonli buyrug'i bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri, Aq tobe ko'chasida joylashgan "EL XIZMETINDE" advokatlik byurosi advokati Tajimuratov Dauletmurat Mirzamuraatovichga 2021-yil 23-aprelda berilgan QR 000153-sonli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi hamda advokatlik maqomi tugatildi.

O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi qonunining 16-moddasiga asosan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligining 2024-yil 16-fevraldagi 38-um-sonli buyrug'i bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri, J. Seytova ko'chasida joylashgan "NIZAM USTINLIGI" advokatlik hay'ati advokati Dosnazarov Oralbay Begniyazovichga 2018-yil 28-dekabrda berilgan QR 000017-sonli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi hamda advokatlik maqomi tugatildi.

## 8 JURNALIST KUZATUVI

XOTIRA



Talaba edim. Qishloqdan kelganimga hali uncha ko'p bo'lmagan. Shu kunlarda Azim aka (Azim Suyun) qo'ng'iroq qilib: "Dam olish kuni uyga kelsang, bog' tarafdagi o'zgina o'rildigan joy bor, qishloq bolasi uchun arzimagan ish", deb qoldi. Xo'p, dedim. Sababi oldin ham u joyga bir-ikki marta borgandim, Qibrayning bahavo joylaridan, qishloq havosini eslatadi.

### "Anjir qani?"

Yakshanba kuni borsam, Azim aka qayergadir ketishga taraddudlanib turgan ekan. Menga ishni tayinladi-da, o'zi tez borib kelishini aytib ketdi. Chap qo'l bilan bir tutam o'tni ushlab (bu usulni o't o'rganlar yaxshi biladi), o'ng qo'ldagi o'roq bilan yerning taqirini chiqarib o'ra boshladim. Bu qishloqdagi eng oson ishlardan biri edi. Hash-pash deguncha, ishni do'ndirib tashladim. Katta ishni qoyillatgandek, majnuntol tagiga qo'yilgan karavotga chiqib, oyoqni cho'zdim.

Oradan ko'p o'tmay Azim aka ham keldi:

– Xo'sh, hormasinlar endi. Qoyil, mana bu boshqa gap. O'tlarni o'rib turmasa, bu yerda odam ham yurib bo'lmay qoladi-da, deya o'tdan tozalangan joyga bordi. Atrofga nazar solar ekan, boshidagi shlyapasini qo'lga oldi. Tevarakka enkayibroq, yanada sinchkov boqdi:

– Anjir qani? Bu yerda ikki tup anjir ko'chatim bor ediku, ularniyam qo'shib o'ribsan-da? Endi bo'yi cho'zilib qolgandi-ya...

Azim akaning kayfiyati buzildi. Men xijolatdaman. Vaziyatdan chiqish uchun ariq chetidan loy oldim-da, anjirlarning kesilgan joyiga surkab qo'ydim. O'zi bu anjir ko'chatlaringiz ham o't bo'yi ekan-da, ko'rmabman. Bo'ldi, ko'karib ketadi, dedim.

– Bu amaliyotda bo'ganmi? – deya kuldi. – Albatta, qishloqda kesilgan daraxtlardan qolgan to'nkani ustiga loy chaplab qo'rganini va keyingi yil to'nka ildizidan yangi novdalar chiqqanini ko'rganman. Baribir Azim akadagi achinish hissi ketmadi.

Hayriyat, keyingi yil bahorda anjirning bittasi yana ildiz otib ko'karib ketdi. Shu-shu Azim aka ancha yillar biron ish bilan meni chaqirmoqchi bo'lsa, anjirlardan bir xabar olib ketmaysanmi, deb kulardi.

Yorbek ISKANDAROV,  
jurnalist

Bu murojaat ko'pchilikni hayratlantirgani aniq. Minglab ko'p qavatli "dom"lar, yuzlab savdo do'konlari, dorixona, dang'illama restorani yemakxonalar qurilayotgan bir paytda kutubxona qurish noyob hodisa bo'lib qolganini yashirib nima qilamiz. Navoiy shahrida katta kutubxona qurilishi va bu ziyo maskanini qayerda qurish ma'qul, deya hokimning xalqqa maslahat solishi, ularning fikrini eshitishi, hurmat qilishining o'zi ma'rifatli qadam.

5 kun ichida mazkur so'rovnoma 58 mingdan ortiq marta ko'rilgan. 10 ming 700 nafar aholi o'z ovozi bergan. Ijtimoiy tarmoq orqali minglab fikr-mulohazalar bildirilgani, albatta, yaxshi natija.

Hokim ezgu maqsad yo'lida birlashgan, islohotlarga befarq bo'lmagan viloyat ahliga minnatdorlik bildirdi. Hazrat Navoiy nomi bilan atalgan zamin-da yana bir ma'rifat koshonasi qad rostlashidan ko'ngillar yorishadigan bo'ldi.

## Ma'rifatli qadam

Yaqinda Navoiy viloyat hokimi N. Tursunov o'z telegram kanali orqali "Navoiy shahrida buniyod etilishi rejalashtirilayotgan zamonaviy, o'ziga xos kutubxona qayerda qurilishini istaysiz?" degan mazmunda navoiyliklarga murojaat qilgan edi.



### G'URURI SINGAN BOLALAR ERTAGA KIM BO'LADI?

Tarbiyani har kim har xil tushunadi. Kimdir kaltak bilan kiritiladi desa, kimdir qo'rquv va tahdidlar bilan bolaning "aqlini kiritib qo'yish" tarafdori. Aslida ta'lim-tarbiya egizak. Ammo unga tazyiqlar bilan erishib bo'lmaydi. Qattiqqo'llikni johillik va yovuzlik bilan adashtirmaylik.

Ijtimoiy tarmoqlarda aylanayotgan, hamkasbimiz Ruslan Saburov sahifasida qizg'in bahs va munozaralarga sabab bo'layotgan mana bu lavha ham afsuski Navoiydan.

### "MAKTABMI YOKI QAMOQXONA?"

Navoiy shahridagi 2-umumta'lim maktabi direktori Nurqobil Yusupov dars paytida o'g'il bola o'quvchilarni sport zalga yig'ib, ommaviy ravishda soch olish "marosimi"ni o'tkazdi. Buning uchun o'z hisobidan sartaosh jalb qilibdi. Tashabbusni qaranglar. Milliy gvardiya xodimlari esa jarayon ustidan chiqib qolishgan.

Navoiy viloyat hokimi Normat Tursunov darsni buzishga hatto hokimning ham haqqi yo'q, deb turgan bir vaziyatda direktorning bu ishini qanday baholaysiz? Qachongacha ta'lim bilan emas, bolaning sochi, oyoq kiyimi bilan shug'ullanamiz?.. (Ruslan Saburov sahifasidan).

Nimagadir yarq etib ijodkor va siyosatchi Jaloliddin Safoyevning Edvard Radzinskiydan "Kaltaklangan askar eng katta boyligi – or-nomusini yo'qotadi!" sarlavhali tarjimai xayoldan o'tdi. Uni har o'qiganda kishining yuragi orqaga tortib ketishi aniq: "...Askarlarni hayvoniy vahshiylik bilan savalashardi. Askar kiyimidan kamchilik topishsa yoki qaddi rostlikni xato deb hisoblashsa – besh yuz qamchi, armiyadan qochishga uringani uchun bir yarim ming qamchi va bu ishni takrorlasa – uch ming qamchi urilardi...

"Yig'loqi bolani" chiniqtirish uchun yigirma yoshimda otam meni (rus podshosi Nikolay I taxt vorisi Aleksandr II ni. Tarjimon) besh yuz qamchi urish marosimini ko'rishga olib borgandi.

Sho'rlik askarni beligacha yalang'ochlashdi. Barabanlar chalindi. Va uni qo'li orqaga bog'langan holda saf tortib turgan askarlar orasidan olib o'tishdi. Ikki nafar soqchi unga hamroh edi. Safda turgan har bir askar uni kaltak bilan yaxshilab urishi uchun juda sekin olib o'tishardi. Askarlar ham bor kuchi bilan kaltak tushirardi. Bechoraning yalinib-yolvorgan, azobdan dod-faryod ko'targan ovozi barabanlar sadosi bosib yuborardi... Terisi shilini ketgan, oyog'ida zo'rg'a turgan askar hushidan ketib yiqildi... Uni majburlab yana oyoqqa qo'yishdi. Yana kaltak zarbalari yog'ildi. Endi yelkadagi shilingan teri o'rnidan qonga botgan go'sht chiqib turardi. U oxirgi marta yiqildi va qayta o'rnidan tura olmadi. Kaltaklab o'ldirilgan askarning jasadini o'tin tashiydigan chanaga ortishdi. Shunda ham to belgilangan kaltak soni ado etilmaguncha jasadni savalashni davom ettirishdi.

Bonapart nima deganini esimda saqlardim: "Kaltaklangan askar o'zining eng katta boyligi – or-nomusini yo'qotadi!"

Garchi yuqoridagi maktab o'quvchilari ommaviy sochini oldirishga oid kamsituvchi "sahna" ko'rinishi bu qadar ayanchli bo'lmasa ham, aslida g'urur va or-nomus tushunchasi, uni yo'qotish, sindirish uchun zarbaning katta-kichigi bo'lmasligini anglagandirsiz?!

BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasida belgilab qo'yilgan "Hech bir bolaning shaxsiy daxlsizlik huquqi, obro'si va g'ururi o'zbohimchalik yoki noqonuniy aralashuv obyekti bo'lishi mumkin emas" degan normadan janob direktorning xabari yo'q shekilli?

Tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak, deb shuning uchun aytalar kerak-da!

Marusa HOSILOVA,  
"Inson va qonun" muxbiri

INSON  
va qonun

MUASSIS:  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot  
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda  
O'zbekiston  
Matbuot va axborot  
agentligida  
0081-raqam bilan  
ro'yxatga olingan



Bosh  
muharrir

Asliddin  
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov  
Furqat Tojiyev  
Akbar Musayev  
Xayotjon Klichev  
Sevara O'rinboyeva  
Yorbek Iskandarov  
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan  
qo'lyozmalar taqriz  
qilinmaydi va muallifga  
qaytarilmaydi.

Navbatchi  
Gulbahor Ortixojayeva  
Sahifalovchi-dizayner  
Jasur Tojiyboyev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraj – 4125  
Buyurtma – 643

Topshirish vaqti – 19:00  
Topshirildi – 19:00

MANZILIMIZ:

100060, Toshkent sh.  
Amir Temur shohko'chasi  
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18

Obuna bo'limi:  
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5